

# МУАЛЛИМ СЕЎМ ӮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИ<sup>2</sup>



*Илимий-методикалық журнал*

---

**2023**

**2/2-сан**

*Өзбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы  
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳэм хабар агентлиги тәрепинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы гүўалық берилген.*

Нөкис

**2/2-сан 2023**

*март-апрель*

---

**Шөлкемлестириүшилдер:**

**Карақалпақстан Республикасы Халық билимлендирүү Министрлиги,  
ӨЗПИИИ Карақалпақстан филиалы**

**Редактор:  
А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Асқарбай НИЯЗОВ
Нафмет АЙЫМБЕТОВ	Сабит НУРЖАНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Уролбой МИРСАНОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ	Нуржан МАТЧАНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Шукурилло МАРДОНОВ
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Тұлқин АЛЛАЁРОВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Умида БАҲАДИРОВА	Барлықбай ПРЕНОВ
Фарҳад БАБАШЕВ	Қаҳҳор ТУРСУНОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Нурзода ТОШЕВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ	Амангелди КАМАЛОВ
Алишер ЖУМАНОВ	Ризамат ШОДИЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ	Дүстназар ХИММАТАЛИЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Гавхар ЭЩАНОВА



## МАЗМУНЫ

## ТИЛ ҲӘМ ӘДЕБИЯТ

Seytkasimov D. B. Universal kompetenciyalardı jetilistiriwde filolog-studentlerdiń pedagogikalıq iskerligin shólkemlestiriw .....	6
Aytbaev D. T. Sintaktik polisemiya va qo'shma gaplarda shakliy-mazmuniy nomutanosiblik .....	14
Kenjayeva M. A., Normurodova N. E. Ona tili fanini o'qitishda tayanch kompetensiyalarnı rivojlantirishda ta'lım texnologiyalardan foydalaniş .....	21
Zokirov J. G'. Zamonaviy darsliklar: ona tili ta'limi mazmunini yangilash konsepsiysi .....	30
Sa'dullayeva P. A. Ingliz va o'zbek tillarida antroponom komponentlari paremiologik va frazeologik birliliklar tadqiqi .....	36
Narzulloyeva F. N. Structural and semantic analysis of philosophical terms in english and uzbek languages .....	42
Quvvatova M. X. The lexical filed of women's mind in two languages: uzbek and english .....	48
Rahimov A. B. Improving the method of communication in english among non-philology students .....	54

## ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

İsmayılov A. C. Karaçalpaq hалқындағы тыйым сөзлердин тәрбиялық әхмийети .....	58
Matnazarova K. O. O'qituvchi kasbiy kompetentligini shakllantirish omillari .....	62
Shixnazarov B. B. Innovatsion o'qitishda truba cholg'usidan foydalaniş .....	67
Madraximov Ya. B. "Ta'lım klasteri" tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari .....	72
Мамаражабов М. Э. Педагогик тадқиқотларда моделлаштириш усули .....	77
Islamova M. Sh. Kursatlarda "Divergent fikrlash"ni kimyo darslarida rivojlantirish .....	81
Fayziyeva M. R. Raqamli transformatsiya jarayonida pedagogik mobillikning zaruriyat .....	86
Xudaybergenova A. Maktab, oila va mahallalarning hamkorligi konsepsiyasining mohiyati .....	90
Xushnayev O. A. Bo'lajak muhandis-o'qituvchilarni ijodiy loyihalash faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari .....	95
Ortiqova N. A. Ta'lım sohasidagi innovation jarayonlar rivojlanishining umumiy yo'nalishlari .....	103
Этбобоев Д. Э. Таълим соҳасида менежерларни касбий тайёрлаш муаммолари .....	108
Xushnayev O. A. Bo'lajak muhandis-o'qituvchining ijodiy loyihalash faoliyatiga tayyorgarligining strukturali-mazmuni modeli .....	114
Omonova M. D. Ta'lım jarayonida tanqidiy fikrlash masalalari .....	122
Мамажанов И. Г. Инновацион фаолият асосида таълим тизими бошқариш .....	126
Муродова У. Д. Олий ўкув юрти талабаларига атамаларни ўқитиш назарияси ва амалиёти .....	136
Qodirov O. M. Yoshlarni mahoratiga qarab kasbga yo'naltirishda ajdodlarimizdan qolgan amaliy hunarmandchilik sirlarini yetkazib berish .....	141
Сулаймонова М. Б. Тасвирий саньнати ўқитишида интерфаол таълим методларидан фойдаланиш .....	147
Kamolova G. Qadriyatlar nazariyalari asosida o'quvchilarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashning tarixiy tahlili .....	154
Jumayeva H. M. Talabalar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi variativ tahdidlar .....	159
Baybaeva M. X., Imomov I. A. Ta'limda rahbarlarning boshqaruvi faoliyatlarida sog'lom va ijodiy muhitni takomillashtirishning tashkiliy-me'yoriy asoslari .....	165
Uteniyazov Z. B. Bo'lajak yosh kadrlarning ijodiy faoliyatini pedagogik jihatdan shakllantirish va rivojlantirish xususiyatlari .....	174
Orakbaev Z. Z. Pedagogik tizimda ta'lım rahbarlari va ularning pedagogik xususiyatlari .....	180
Alayeva Z. M., Junaydova M. H. Musiqa to'garaklariga o'quvchilarning qiziqishlarini oshirib borish omillari .....	185



<b>Avliyakulova N. M.</b> Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini amaliy ishslash faoliyatini samarali shakllantirish yo'llari .....	190
<b>Jumayev F. Sh.</b> O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari ofiseler tarkibining psixologik – pedagogik tayyorgarligiga qo'yilgan talablar .....	198
<b>Badalov K. R., Xolmurodova N. X.</b> "Didaktik-metodik kompetentligi" tushunchasining mazmun-mohiyati .....	203
<b>Safoyev H.</b> Talabalarни harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning rivojlantirish mexanizmi .....	210
<b>Toшпуплатова М. И.</b> Илмий билимлар интеграцияси турлари ва даражалари тасвиfi .....	215
<b>Abduraxmanov Sh. N.</b> O'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda sharq mutafakkirlarining ta'lim – tarbiya haqidagi qarashlari .....	220
<b>Raximov R. N.</b> Yosh avlodni tarbiyalashda xalq qo'shiqlarining o'mni .....	228
<b>Kungiratov A. Sh.</b> Talabalarda iqtisodiy madaniyatni rivojlantirishning ahamiyatli jihatlari .....	232
<b>Mamurova D. I., Bomurodova M.</b> Kognitivni shakllantirish muammosining rivojlanish tarixi pedagogika nazariyasi va amaliyotida bo'lajak o'qituvchilarning ko'rgazmali qobiliyatlar .....	239
<b>Ibadullayeva Sh. I.</b> Inklyuziv ta'lim sharoitida tasviriy san'atni o'qitishda art – texnologiyalarning ahamiyati .....	245
<b>Abduraxmanov Sh. N.</b> Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimi .....	252
<b>Rajabov T. I.</b> Umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa darsida buxoro bolalar folklor qo'shiqlarini o'rgatishning ahamiyati .....	259
<b>Sa'diyev S. T.</b> Oliy pedagogik ta'lim tizimida qalam tasvir fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish .....	267
<b>Усманова У. А.</b> Илмий тадқиқот ишларини ташкил этишда магистратура талабаларнинг шахсий сифатларини хисобга олиш .....	273
<b>Усманова У. А.</b> Магистратура талабаларининг илмий тадқиқот ишларини амалга ошириш йўллари .....	283
<b>Юлдашева М. Б., Колканатов А. Н.</b> Пути формирование экологической культуры молодежи в социокультурной среде .....	289
<b>Абдуллаев С. С.</b> Современное обучение основам рисунка художников – педагогов будущих специалистов направления образования по виду изобразительное искусство и инженерная графика .....	294

## МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

<b>Тлеумуратова З.</b> Жиien Жырау шығармаларында тарийхыйлық .....	299
<b>Kadirova N. A.</b> Yoshlarni milliy an'analar va qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash .....	302
<b>Toshmurodov B. U.</b> O'zbek xalq musiqa ijodiyotining shakllanishi va taraqqiyot yo'lidagi ilmiy qarashlari .....	309

## ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

<b>Prenov B. B., Janabergenova A. J.</b> Modellashning turli matematik parametrlari .....	315
<b>Bozorov G.</b> S. Elektron ta'lim muhitida mantiq elementlari va ularning qo'llanilishiga doir ba'zi mulohazalar .....	320
<b>Кодирова Ф. Т.</b> Олий таълим муассасаларида ахборот технологиялари компетенцияларини ривожлантириши методикаси .....	325
<b>Janabergenova G. J.</b> Bo'lajak fizika fani o'qituvchilar metodologik tayyorgarligiga oid innovatsion yondashuvlar .....	329
<b>Даминов М. И., Жамилова Д. М.</b> Талабаларнинг пазандачиликка оид кўнкималарини ривожлантиришда мультимедия воситаларидан фойдаланишининг дидактик имкониятлари .....	333
<b>Жўраев А. Р., Муртазоев А. С., Латипова З. О.</b> Бўлажак технология фани ўқитувчиларининг касбий фаолиятга оид компетентлигини ривожлантиришда мобил иловаларни ишлаб чиқиш .....	342
<b>Shukurov A. R.</b> Chizmachilik fanini o'qitish jarayonida ko'rgazmalilik sohasining dolzarbligi .....	351

## YOSHLARNI MILLIY AN'ANALAR VA QADRIYATLARGA HURMAT RUHIDA TARBIYALASH

*Kadirova N. A.  
Buxoro davlat universiteti*

**Tayanch so‘zlar:** milliy an’ana, qadriyat, tarbiya, millat, or-nomus, ajdodlar ruhi, xalq bayramlari, farzandlik burchi, barkamol shaxs.

**Ключевые слова:** национальная традиция, ценность, воспитание, нация, честь, дух предков, народные праздники, долг детства, гармоничная личность.

**Key words:** national tradition, value, upbringing, nationality, or-name, ancestral spirit, folk holidays, filial duty, harmonious personality.

**Kirish.** Mamlakatimizda milliy qadriyatlarni tiklash bo‘yicha jiddiy tadbirlarning amalga oshirilayotganligi ma’naviyatimizning tiklanishida juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy qadriyatlarni tiklanayotganligini bugungi kunda jahon tan olmoqda. Ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bahouddin Naqshband kabi ulug‘ siy molarga, Buxoro, Xiva shaharlari yubileylariga bag‘ishlangan tadbirlar, simpoziumlarda dunyoning 50 dan ortiq davlatlaridan vakillarning qatnashganligi buning yorqin misolidir. Ma’lumki, an’analar xalqning tarixiy shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yaratilgan va ajdodlardan avlodlarga muqaddas meros sifatida o‘tib kelayotgan beba ho ma’naviy boylik hisoblanadi. Millatning asosiy belgilaridan biriga aylangan odatlarni asrash va kamol toptirish har bir avlodning muqaddas burchi bo‘lib qolayapti.

An’analar barhayot bo‘lishi uchun, eng avvalo, uni kelajagimiz bunyodkorlari yoshlar egallashi lozim. Ana’naviy xalq bayramlarining tiklanishi o‘zbek madaniyati tarixida o‘ta muhim voqeа bo‘lib qolmoqda. Chunki bayramlar hayotning eng yaxshi tomonlarini o‘zida mujassamlashtirgan madaniyatning yirik va muhim shakli hisoblanadi. Shu yo‘l bilan azaliy bayramlarning tiklanishi bilan xalq madaniyatining eng qimmatli tomonlarini jonlantirishga zamin yaratildi. Xalq an’analarining tiklanishi borasida so‘z borganda, yoshlar kamolotida muhim o‘rin tutadigan xalq o‘yinlariga alohida to‘xtalish lozim. Ajdodlarimizning eng qadimiy an’naviy, ko‘pgina madaniyat shakllari raqs, teatr va sportga xos marosimlar shu o‘yinlar zaminidan kelib chiqqan va tarixiy jarayonda avlod ajdodlarimizning sog‘lomlashtiruvchi vositasi bo‘lib kelgan.



Ravshanki, ko'ngilda vatanga muhabbat jo'sh urib turmasa, unga oshuftalik qalbni qaynatmasa, vujudingda Vatanga farzandlik burchi mas'ullik torlarini harakatga keltirmasa, harchand "Vatanim sajdagohim, iqbol maskanim" deyilgani bilan bizdagi mehru sadoqat qandaydir mavhumiylikka moyil hisga o'xshab ketadi. Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz yoshlarimizning baxtsaodati ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Odobli, bilimdon va aqli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va urf-odatlardan foydalanish bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayoni oldida turgan eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham mamlakatimizda yaratilgan bu betakror an'ana va marosimlar, milliy qadriyatlar va urf-odatlarni o'rganish hamma davrlarda ham olimlar oldiga bir qator muhim vazifalarni bajarish zaruratin qo'ygan. Avvalo, ozod va mustaqil Vatanda xalqni farovonlikka yetaklovchi va ma'lum ma'noda munosib turmushni kafolatlovchi shart-sharoitlar yaratildi. Davlatimizda fidoyi, ishchan, tashkilotchilik salohiyati baland malakali kuchlar ulg'aydi. Ular siyosasi, faoliyatida milliy ma'naviyatning barqaror mag'zi, yaratuvchan kuchi mavjud. Milliy ma'naviyati barqaror shakllangan bunday kishilar o'z xalqi, millati, vatani manfaatini har qanday sharoitda himoya qiladi, o'z faoliyatida xalqimizning milliy ma'naviyatini namoyish eta oladigan, millatning salohiyatini, Vatan qadri, sha'ni, shuhratini ellararo, davlatlararo ko'rsata biladigan insonlardir. Yoshlarga milliy qadriyatlarni ta'limdan tashqari ishlar orqali singdirishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

Birinchidan, yoshlarni erkin fikrleshga o'rgatish, hayot mazmunini tushunib olishiga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini, shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va amal birligi hissini uyg'otish;

Ikkinchidan, talabalarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallahsha bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, o'stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish;

Uchinchidan, har bir o'smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlanadirish, inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilish. Yoshlar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoit hozirlash;

To'rtinchidan, insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish (bir-birini tushunish, mehribonlik, shafqatlik, irqiy va milliy kamsitishlarga qarshi kurasha olish), muomala odobi kabi tarbiya vositalarini keng qo'llash;

Beshinchidan, yoshlarimizni erkin va mustaqil fikrleshga o'rgatish. Ta'limdan tashqari tarbiyaviy ishlar talaba-yoshlarning qiziqishi, istaklari, xohish va

ehtiyojlariga suyangan holda, ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi. Bu jarayonlarni tashkil etish yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi.

Bugungi kun yoshlarining bir kunlik vaqt byudjeti: o'quv va darsdan (uyushmagan yoshlar uchun uy ishlaridan tashqari) tashqari vaqt sotsiologiyasini aniqlash va shu asosda ta'lidan tashqari ishlarni samarali tashkil etish choratadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Darsdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda: tanlovlardan, klublar, badiiy havaskorlik, uchrashuvlar, bahslar, sport musobaqalari, davra suhbatlari, treninglar va boshqa tadbirlar, usullari: ishontirish, namuna ko'rsatish, o'rganish, mashq qildirish, rag'batlantirish, illatlarga salbiy munosabat bildirish, munozaralar, kuzatish, trening, jamoaviy ijodiy faoliyat, "mafkuraviy vaziyat", harakatli, taqlidli, rolli o'yinlar va boshqa shu turdag'i usullardan samarali foydalanish lozim.

O'zbek oilalaridagi kitobga muhabbat, kitobni asrab-avaylab saqlash va kitobxonlik xalqimiz ma'naviy kamolotida muhim ahamiyat kasb etgan fazilatga aylangan. Chunki kishining o'zini-o'zi tarbiyalashida kitob ham bilim manbai, ham o'zingizni ko'rish, taqqoslash, taqlid qilish, munozara yuritish, bahslashishda ma'lum darajada ko'zgu vazifasini o'taydi. Kitobxonlik mushohada va mulohaza yuritish iqtidorini shakllantiradi, fikrni charxlaydi, teranlashtiradi.

Ta'lidan tashqari ishlarda yoshlarni kitob mutola qilishga da'vat etish, ularning kitoblardan foydalanib o'z ustida ishlash imkoniyatlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy joylar, osori atiqalar, yodgorliklar, ziyoratgohlar bilan tanishib, ularni o'rganishga talaba-yoshlarni jalb etish zarur. Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, muzeylear faoliyatini yanada takomillashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Muzeylarga talaba-talabalarning tashrifini uyushtirib borish an'anaga aylanishi kerak. "Mening davlatim", "Mening xalqim", "Mening Vatanim", "Biz hech kimdan kam bo'lmaganmiz, kam bo'lmaymiz ham" va shu kabi turli ma'rifiy tadbirlar tashkil etib, ularda talabalarni va uyushmagan yoshlarni faol ishtirokini ta'minlash lozim.

Yoshlarning to'y-marakalarda, ommaviy sayllar, bayramlarda ishtiroki asosida mahallada o'zini tutishni, kattaga hurmat, kichikka izzatni, yaxshi-yomon kunlarda yelkadoshlikni his qilishni o'rgatish orqali milliy istiqlol g'oyasining asosiy tamoyillaridan bo'lgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabatni shakllantirishga e'tibor qaratish lozim.

Shu ma'noda milliy urf - odat va an'analarni yoshlar ongiga singdirish har qanday millat uchun o'z taraqqiyotning maqsad va vazifasi bo'lib qolgan. Mustaqillik yillarida milliy urf - odat va an'analarni tiklash, zamon ehtiyojlarini asosida boyitish va yangilarini shakllantirish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Shuning bilan birga ularni yoshlar ongiga singdirish borasida ham



sezilarli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, to‘y va boshqa marosimlarni o‘tkazish an’analari tiklandi, ota-onalar bilan farzand o‘rtalarida avlod - ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelgan munosabatlarni ota-onaning oiladagi roli, farzandning ular oldidagi burchlarini anglash kabi an’analarga e’tibor oshdi.

Ayniqsa, mustaqillik yillarda bir qator bayramlarning tiklanishi va yangilarining shakllanganligi alohida ahamiyatga molik bo‘ldi. Jumladan, ro‘za va Qurbon hayitlarini o‘tkazish an’anasining, “Navro‘z” bayramini nishonlash, va mustaqillik bayramini o‘tkazishning an’anaga aylanishi millatimiz tarixida yangi davrni boshlab berdi. Ular bugungi kunda yoshlаримиз ma’naviyatining ajralmas boyligiga aylanadi.

Xalqimizda oila, katta oila, mahalla-kuy, ya’ni jamoatchilik bilan yashash an’anasi, aytish mumkinki, hayotimizning mazmunini tashkil etadi. Mahalliy jamoatchilik deganimizda nafaqat mahalla, balki atrof tanish- bilishlar, ishxonadagi jamoa ham nazarda tutiladi albatta. Mahallada har bir oilaning obro‘sı shu oila a’zolarining mahalladagi, qolaversa, jamiyatdagi egallagan mavqeи bilan ham o‘lchanadi.

Har qanday zamonning o‘ziga xos dardi, talab va ehtiyojlari bo‘ladi. Mustaqillik jamiyat taqdiriga taalluqli juda ko‘p jumboqlarni echish bilan birga milliy ma’naviyatimiz oldida turgan bir qator muammolarni oolib tashladi. Ayniqsa axloq-odob masalalari, inson deb atalmish tabiat gultojiga boshqacha nigoh bilan qarash uchun o‘z millati an’analari va umumbashariy qadriyatlarni bilmog‘i kerakligi tan olindi. Ba’zi odamlarni aldash mumkin bo‘lsa ham butun bir millatni uzoq vaqt laqillatib bo‘lmasligini tushunib etdik. Qariyb 130 yil davom etgan mustamlakachilik siyosati bizni o‘zligimizdan ayirishga harakat qildilar. Buyuk bobokalonlarimizga, xalqimizning asl farzandlari Qodiriyl va Cho‘lponek kabi ziylolarimizga “boshqacha” nigoh bilan qarashdi. Lekin baribir maqsadlariga erisholmadilar. Haqiqat egilsa ham, hech qachon sinmasligi yana bir bor ayon bo‘ldi. Yaxshi hulq va barkamol axloqning shakllanishida “Vatan” deb atalmish muqaddas makon bilan uning jonli va jonsiz hilqati, quyoshiyu havosi bilan ko‘z ochgan buloqlari bilan hamnafas bo‘lishi lozim. Agar bizning axloqiy fazilatlarimiz millat va uning ravnaqi uchun xizmat qilsagina boshqalarda havas tuyg‘ularini uyg‘otadi. Ana shundagina millat o‘z o‘tmishini, urf-odatlarini unutmaydi. Dunyoda hech qachon o‘qib tugatib bo‘lmaydigan bir kitob, oxirigacha ijro etib bo‘lmaydigan bir musiqa borki, u ham bo‘lsa vatan va millat taqdiri hamda urf-odatlaridir.

Har bir inson o‘z shaxsiy muammolari bilan birga zamon va millat qadriyatlariga qulq tutishi, xalq manfaatini shaxsiy manfaatidan ustun qo‘ymog‘i shart. Ijtimoiy harakat ilg‘or va oljanob milliy fazilatlarga qanot bag‘ishlasa, xalq ommasi ruhiyati va orzulari bilan yo‘g‘rilgan bo‘lsa, millat va milliy o‘ziga

xosliklar gullab yashnaydi. Hech qachon shaxsiy g‘araz va shuhratparastlik ilinjida aytilgan so‘zlar yurakka etib bormaydi. Qilingan ishlar milliy qadriyatlar ko‘rkini oshirmaydi.

Odamlarning boshini qovushtiradigan, bir tan, bir jon bo‘lib mehnat qilishga jalg etadigan “hashar” deb nomlangan udumlarimiz borki, u har qanday millat odamlarini hayratga soladi. G‘oyaviy tarbiyaning, milliy qadriyatlar ruhda yoshlarni tarbiyalashning boshqa usullari, xususan, tushuntirish, ishontirish, ma’rifatli qilish, tabaqalashgan holda yondoshish, sistemali, yondoshish, o‘zo‘zini ishontirish olib borilayotgan davr, sharoit, muhit, obhekt, vaziyatga qarab belgilanadi. Shunga ko‘ra, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jarayonida bu usullarning barchasidan ham foydalanish taqozo etadi, ularni ustuvor deb ko‘rsatish sharoit, muhit, ob’ektsiz o‘rinsizroq hisoblanadi. Lekin, ularni barchasining asosiy maqsadi milliy g‘oya, milliy mafkuraning asosiy maqsadi-ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish, ularning asosiy g‘oyalari: Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik va boshqalarini omma ongiga, avvalo yoshlar ongi va qalbiga singdirish, buyuk O‘zbekistonning buyuk fuqarosini tarbiyalash hisoblanadi. G‘oyaviy tarbiya, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash odatda uch shaklda olib boriladi: og‘zaki, yozma, ko‘rgazmali. Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning og‘zaki shakli odatda suhbat, maruza, trening, savol-javob, bahs va boshqa ko‘rinishlarda olib boriladi. Yoshlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirishning bu shakli samaradorligi voizning, tarbiyachining, murabbiyning, muallimning, ustozning bilimi, e’tiqodi, jamiyatimiz muammolarini va uni bartaraf etish yo‘llarini aniq batafsil dalillar bilan ilmiy asosda tushuntirib bera olishiga bog‘liq. Hozirgi davrda bu sohadagi tarbiyada muloqot, savol-javob, trening shakllariga katta ehtibor berilmoqda. Yoshlarning milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning yozma shakli ham yoshning dunyoqarashini shakllantirishda, ayniqsa, o‘zini-o‘zi tarbiyalashda muhim o‘rin egallaydi.

Xususan, O‘zbekiston mustaqilligi, mustaqillikning muvaffaqiyatlari aholining ma’naviy-ma’rifiy darajasining o‘shishi, aholining, jumladan, yoshlarning ehtiqliki, dunyoqarashi, ahloqiy fazilatlari, xullas, milliy g‘oya, milliy mafkura muammolariga bag‘ishlangan asarlar, risolalar, maqlolarning ko‘plab chiqarilishi mamlakatimizda nashr qilinayotgan gazeta va jurnallarda g‘oyaviy tarbiyaga, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda doimiy, sistemali, ilmiy asosda e’tiborning ortishi bu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini oshiradi. Yozma adabiyotning ta’sirchanligini kuchaytiradi.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda bu sohaga katta ehtibor berilmoqda. Oldingi qo‘lda, qing‘ir-qiyshi qoziladigan ko‘rgazmali targ‘ibot-tashviqot



uchun tayyorlangan vositalar o‘rnida kompyuterlarda ishlangan ko‘rgazmali vositalar turi, shakli, ko‘rinishlari yildan-yilga yangilanib bormoqda. Lekin, bu borada eski mafkuraga xizmat qilgan ko‘rgazmali vositalarning saqlanib qolishi fuqarolar, xususan, yoshtar ongi, dunyoqarashiga salbiy ta’sir qiladi. Yoshlar ongiga va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirishning ko‘rgazmali shakli ham nafaqat zamon, davr, mustaqillik talablariga javob berishi, balki, ayni paytda bu jarayonning ilmiy asoslari estetik jihatdan did bilan amalga oshirilgan bo‘lishi zarur.

Estetik tarbiyaning eng muhim vositasi sifatida san’at nafaqat badiiy qadriyatlarni idrok qilish, balki ularni yaratishni ham o‘z ichiga oladi. Badiiy

qadriyatlarni yaratishda jamiyat a’zolarining, ayniqsa, yosh avlodning faol ishtirot etishi muhimdir. Buning uchun esa ularda estetik did-farosat va estetik talab-ehtiyojlari rivojlangan bo‘lishi zarur. Estetik tarbiya ijtimoiy faol, har tomonlama va hamo hang rivojlangan shaxsnı tarbiyalash maqsadiga xizmat qiladi. Yoshlarni har tomonlama ham aqlan, ham jismongan barkamol, axloqan yetuk, ma’naviy pok, estetik idrokli qilib tarbiyalashdek muhim va dolzarb

muammolarni hal etishni taqozo qiladi. Estetik tarbiya shaxsning estetik kamolotiga ta’sir o‘tkazadigan tashqi va ichki shart-sharoitlarga bog‘liqdir. Estetik tarbiya vositalari deb, shaxsning voqelikka estetik munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladigan tarbiyaviy faoliyat shakllariga aytamiz. Estetik tarbiya omillari va vositalari o‘rtasidagi chegara nisbiy va shartlidir. Muayyan sharoitlarda estetik tarbiya omillari estetik tarbiya vositalari vazifasini o‘tashi va aksincha bo‘lishi ham mumkin. Yoshlarni go‘zallikka oshno qilish, ularda hayotiy voqealarni to‘g‘ri tushunish olijanob his-tuyg‘ularni va intilishlarni shakllantirishga yordam beradi.

Shu nuqtai nazardan yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda bizning fikrimizcha yuqorida qayd qilganlar bilan birgalikda quyidagi vositalardan foydalanish tarbiyaviy ishlarning samaradoriligini oshiradi:

1. Yoshlarni ijtimoiy va yakka tartibdagi foydali mehnatga jalb qilish, mehnat o‘rnlari bilan ta’minalash, bu jarayonda yoshning, umuman yoshlarning qiziqishi, iste’dodi, manfaatiga ham e’tiborni kuchaytirish;

2. Yoshlarda, yoshlarda ijtimoiy faollik fazilatini oshirish, yoshlar harakatida ularni etakchilik xususiyatlarini oshirish;

3. Milliy g‘oya, milliy mafkurani etarli darajada targ‘ib va tashviq qilish. Milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘un holda milliy g‘oyaning, milliy mafkuraning asosiy tamoyillari hisoblanadi;

4. Yoshlar ongiga milliy qadriyatlarni singdirishda tabiiy-ilmiy bilimlarni keng targ‘ib qilish;

5. Tanqid va o‘z-o‘zini tarbiyalash, mustaqil fikrlash yo‘llarini kuchaytirish;

6. O'tmish merosimiz yutuqlari, mustaqillik adabiyoti, san'ati yutuqlarini keng targ'ib qilish;

7. Milliy an'analar, urf-odatlar ruhida tarbiyalashni kuchaytirish, ayni paytda umuminsoniy va zamonaviy yutuqlarga tayangan holda g'oyaviy tarbiyani tashkil qilish zarur;

8. Yoshlar salohiyatini oshirish, ularning hayotda o'rnini ta'minlash bilan bog'liq ishlarni kuchaytirish;

9. Yoshlarni yot, begona zararli g'oyalardan asrash tadbirlarini, mafkuraviy immunitetni shakllantirishga intilish.

Xulosa. G'oyaviy dunyoqarash, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash zudlik bilan hal qilinadigan ish emas, g'oyaviy dunyoqarashni shakllantirish, yoshlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish uchun 68 tarbiyaviy ishning mavjud barcha usullari, shakllari, vositalaridan o'z o'rnida samarali foydalanish umumiy maqsadlarmizni amalga oshirishda muhim o'rin egallaydi.

### **Adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev, Buyuk kelajagimizni mard va olidianob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 488 b.

2. Rustamov A. Adiblar odobidan adablar. - T.: «Ma'naviyat», 2003.

3. Aliqulov X. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar mutafakkirlar talqinida. - Andijon. 2003. 260 b.

4. Umurzoqov O.P. Umuminsoniy qadriyatlar: milliy an'ana va urf-odatlar takomillashmoqda. G'G' O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1992 №2.

5. M.L.Umedjanovna. Talabalarni milliy qadriyatlar ruhida oilaviy hayotga tarbiyalash. Monografiya-Buxoro 2022

### **РЕЗЮМЕ**

Ushbu maqolada yoshlarni milliy an'analar va qadriyatlar orqali tarbiyalashda ularga do'stlik, mehmono'stlik, insonparvarlik, axloqiy poklik, saxyilik, xushmuomalalik, ozodalik, xushchaqchaqlik, xushfe'llilik, mardlik, samimiylilik, lutfi karamlik, ona yurt va xalqiga muhabbatlik, insoflik, diyonatlilik, rostgo'yilik, halollik, or-nomuslilik,sabr-andishalik, vazminlik, hojatbarorlik, ota-onha va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o'tmishta hurmat, insoflik, iymonlilik, milliy g'urur to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

### **РЕЗЮМЕ**

В данной статье рассматриваются вопросы воспитания молодежи в соответствии с национальными традициями и ценностями: дружба, гостеприимство, гуманизм, нравственная чистота, щедрость, вежливость, опрятность, веселость, доброта, мужество, искренность, любезность, любовь к родному краю и народу, честность, преданность, правдивость, честность, порядочность, терпение, сдержанность, речь идет о туалете, уважении к родителям и взрослым, трудолюбии, уважении к прошлому, честности, вере, национальной гордости.

### **SUMMARY**

In this article, in educating young people through national traditions and values, they are taught friendship, hospitality, humanity, moral purity, generosity, politeness, tidiness, kindness, Valor, sincerity, grace, kindness, love for their native land and people, honesty, self-esteem, patience, self-esteem, respect for parents and adults, respect for hard work, respect for the past, honesty, honesty, honesty, about faithfulness, national pride is mentioned.

ISSN 2181-7138

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық  
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Каракалпақстан филиалы

**«МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ  
БИЛИМЛЕНДИРИҮ»**

**№ 2/2**

**Нөхис — 2023**

Басып шығыўға жуўапкер:

*A. Тилегенов*

Баспаға таярлаған:

*A. Тилегенов, Р. Утенов*

Компьютерде таярлаған:

*П. Реймбаев*

**Мәнзил: Нөхис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54**

**Тел.: 224-23-00**

**e-mail: izniiрnkkf@utmail.uz,**

***mugallim-pednauk@utmail.uz***

***www.mugallim-uziksiz-bilim.uz***

*Журналга келген мақалаларға жуујап қайтарылмайды, журналда жердияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм үзликсиз билимлендіриү» журналинан алынды, дең көрсетилийи шәрт. Журналга 5-6 бет көлеміндеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтінде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада көлтирилген маглыұматтарға автор жуујапкер.*

Оригинал-макетten басыуға рухсат етилди 14.04.2023. Форматы 70x100<sup>1/8</sup>  
«Таймс» гарнитурасында оффсет усылында басылды.

Шәртли б.т. 29,5 . Нашр. т. Нусқасы\_\_\_\_\_ Буйыртпа №